

TUT PARVONASINING MARKAZIY OSIYODA TARQALISHI

Egamberdiyev Turg'un Xolmurod o'g'li
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tut parvonasining Markaziy Osiyoda tarqalishi, tut ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishining natijalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tut, ipak qurti, ko'chat, yetishtirish, texnologiya.

Hozirgi zamон kishisining uzoq o'tmishdagi ajdodlari tabiat sirlarini ochar ekan, ba''zi kapalak qurtlarining ingichka, pishiq, yaltiroq iplardan pilla o'rayotganligiga bundan qariyb 6000 yil ilgari ahamiyat bergen edi. Bunday pilla, qurt uchun go'yo uycha bo'lib, u bu uy ichida dastlab g'umbakka, so'ngra esa kapalakka aylanadi. Ko'pgina hasharotlar ham xuddi pillaga o'xshash uycha yasaydi, lekin bu uychalar ipdan emas, balki loydan, barg va boshqa materiallardan yasaladi. Ipak qurtlari pillani o'zlari ishlab chiqaradigan ipak tolasidan o'rashi bilan boshqa qurtlardan farq qiladi.

Dastlab qadimgi tadqiqotchilar pillaning ipakli qobig'ini teshib, undan paxta olish, uni tirikchilik ishlarida ishlatish mumkin, deb o'ylagan bo'salar kerak. Lekin quruq pillani teshish qiyin bo'lidan ular pillani oldin ivitib, so'ngra suvda qaynatgan, shundan keyingina pilladan ancha miqdorda ipak paxta olish, undan ip yigirish, ipdan gazlama to'qish mumkin bo'lgan.

Bizning ajdodlarimiz ham o'zining ahamiyati jihatidan hozirgi zamondagi ko'pgina kashfiyotlardan qolishmaydigan kashfiyotlar qilganlar.

Chuvilgan ipak tolalaridan to'qilgan gazlamalar juda yengil, pishiq va chiroqli bo'lgan; ulami turli tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yash mumkin bo'lgan; bu gazlamalardan tikilgan kiyimlar juda chidamli bo'lgan, hatto otadan o'g'ilga, ba'zan esa nabiraga ham qolgan.

Tut ipak qurtining daraxtlarda yovvoyi holda yashaganligi, u yerda pilla o'raganligi pilla ipagidan keng ko'lamda foydalanishdagi dastlabki qiyinchiliklar edi. Daraxtlardan pillani terib olish iqlim sharoitlariga qarab juda qiyin bo'lgan. Bu esa ipak qurtini uyda boqish, shu bilan birga, pillanibir yerdan yig'ib olish uchun urinib ko'rishga majbur etgan. Bunday urinishlar muvaffaqiyatli chiqqan va tut ipak qurti xonakilashib qolgan. Shundan beri ipakchilik qishloq xo'jaligming to'qimachilik uchun xomashyo — qimmatbaho pilla beradigan tarmog'i bo'lib qoldi. Qurt boqib pilla olgan xo'jaliklar pillani avval o'zlari chuvib, undan to'qimachilik ipi olganlar hamda gazlama to'qiganlar. So'ngra, pilladan ipak

Tut parvonasi (Glyphodes pylialis Walker.) — qurti faqat tut bargi bilan oziqtanadigan zararkunanda hasharot. Ayniqsa, tut daraxtlari, nihollari, bargiga jiddiy zarar keltiradi. To'liq rivojlanadigan hasharot. Katta yoshdagi qurtlari daraxt po'stloqlari tagida maxsus ipakdan to'qigan belanchagi ichida qishlab chiqadi. Bahorda g'umbakka aylanadi, 15—20 kundan so'ng undan kapalaklar uchib chiqadi. Kapalagi mayda, qanotlari yozilganda 15–17 mm, qanotida ko'ndalang chiziklari bor. Har bir kapalak (tut bargiga 2—3 tadan) o'rtacha 5060 ta tuxum qo'yadi. Tuxumdan chiqqan qurtlar tut bargi to'qimalarini

yeb shikastlaydi. Zararlangan daraxt novdalari quriydi, sovuqqa chidamliligi pasayib ketadi. Yil davomida 6—7 marta avlod beradi. Oxirgi avlodning qurtlari oktabrnoyab. oylarida qishlashga o‘tadi.

1994-yildan O‘zbekistonda dastlab Afg‘oniston orqali Surxondaryo viloyatida, keyingi yillarda Farg‘ona, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarida Tapkalgan. Tut parvonasiga qarshi biologik kurash usullari yaxshi samara beradi.

O‘rta Osiyoda ko‘p asrlar davomida ipak qurti boqilishiga qaramasdan ipakchilik sohasining rivojlanishiga to‘sinqinlik qilayotgan omillardan biri uning oziq manbaining zaifligidir. Keyingi yillarda tut daraxtidan yuqori hosil olishda qator agrotexnik tadbirlar amalgalashdi. Ammo tut daraxtining zararkunandalariga qarshi kurash choralari tizimini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda.

Tut daraxtining ashaddiy zararkunandalaridan Komstok qurti, buzoqboshi, o‘rgimchakkana, tut odimchisi va tut tilla qo‘ng’izlari bilan bir qatorda keyingi yillarda Respublikamizga kirib kelgan tut parvonasi ham katta iqtisodiy zarar etkazmoqda.

Qurtlar yirik barglarni to‘liq o‘ramasdan, ma’lum bir qismini o‘rab olib oziqlanishi ham mumkin. Shotut hamda marvarid tut barglari qalin bo‘lganligi sababli asosan ikkita yonma-yon bargni bir-biriga yopishtirib, orasida oziqlanadi. Barglari zinch joylashgan novdalarda ayrim katta yoshli qurtlar doimiy ochiq holda oziqlanishi mumkin. Barcha yoshdagagi qurtlar barg eti bilan oziqlanadi va bunda bargning ustki epidermis qismi saqlanib qoladi. Barg epidermisining saqlanib qolishi qurtlarning himoyalanishi bilan bog‘liq. Odatda ozuqa etishmagan hollarda qurtlar barglarni epidermisi bilan birga yaxlit eb zarar keltiradi yoki ayrim qurtlar bargning ustki qismiga o‘tib oziqlanganda ham shunday holat kuzatiladi. Kurtaklar orasidagi qurtlar uning ichki qismi to‘qimalarini eb zararlaydi va natijada kurtak nobud bo‘ladi. Katta yoshdagagi qurtlar ipak qurti uchun kesib olinayotgan tut novdalari bilan birga qurt boqiladigan xonalarga tushib qolsa, ipak qurti tanasini “tishlab” jarohatlashi yoki oziqlanishiga halaqit berishi mumkin.

- Tut parvonasi arealining Farg‘ona vodiysi bo‘ylab kengayib borishida harorat, ozuqa o‘simligi uzluksizligi va shamol hamda insonlarning xo‘jalik faoliyati asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan; tut parvonasining tarqalish tezligi uning mavsumiy miqdor zinchligiga bog‘liq, zararkunanda arealining kengayib borishi 2-5 bo‘g‘in kapalaklari tarqalishi hisobiga amalgalashadi

- Tut parvonasi qurtlari, g‘umbak hamda kapalaklari morfologik va variatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi qiyosiy o‘ziga xoslik ozuqa o‘simligiga ham bog‘liq

- Qish oylarida haroratning -10°C dan pasayishi hamda yuqori namlik tut parvonasi qishlovchi qurtlarini ko‘plab qirilishiga, keyingi mavsumda zararkunanda miqdor zinchligini past darajada bo‘lishiga sabab bo‘ldi; qishning iliq, yoz mavsumi issiq hamda quruq kelishi tut parvonasini ko‘plab ko‘payishi uchun qulay sharoit sanaladi

Tut parvonasining zarari bahor oylarida sezilarli bo‘lmaydi, yozning ikkinchi yarmi va kuz mavsumi boshlanishida eng yuqori darajada bo‘ladi; novdalar odatdagidan 30-40 sm qisqa va sovuqqa chidamsiz bo‘ladi, keyingi mavsumda sifatli barg bermaydi; birinchi yosh parvona qurtlari asosan uchki kurtaklar orasida, barg tomirlarining tutashish satxida 3-4

tadan, ba'zan 10-12 tagacha bo'lib tomirlar oralig'idagi to'qima bilan oziqlanib zarar keltiradi; ikkinchi yosh qurtlar uchki kurtaklar orasi hamda barg plastinkasida, uchinchi yoshdan esa kichikroq barglarni ipak tolasi bilan o'rab olib orasida oziqlanadi; 4-5 yoshdag'i qurtlar yirik barg o'ramlarini hosil qiladi va bir dona bargni o'rashi uchun o'rtacha 25-30 daqiqa vaqt sarflab, 16-18 metr ipak tolasi ajratib chiqaradi

Tut daraxtini zararlanishini oldini olish uchun yosh parvona qurtlari ikkinchi yoshga o'tganda tut daraxtiga ishlov berilsa zararlanishni oldini olgan bo'lamiiz

• Qish oylarida haroratning -10°C dan pasayishi hamda yuqori namlik tut parvonasi qishlovchi qurtlarini ko'plab qirilishiga, keyingi mavsumda zararkunanda miqdor zichligini past darajada bo'lishiga sabab bo'ldi; qishning iliq, yoz mavsumi issiq hamda quruq kelishi tut parvonasini ko'plab ko'payishi uchun qulay sharoit sanaladi.

• Tut parvonasingning tuxumlari, kichik va katta yoshdag'i qurtlariga qarshi biologik vositalardan faydalanib kurash choralarini tashkil etish, bu avvalo arzon hamda atrof muhit musaffoligi va insonlar salomatligiga ham mutlaqo bezarardir.

• Bioloigk kurash tadbirlari doirasida tut parvonasi tuxumlariga qarshi oltinko'z lichinkalarini 1:10 va 1:20 nisbatda qo'llash, kichik yosh, mayda qurtchalarga qarshi oltinko'z lichinkalarini 1:5 va 1:10 nisbatda tarqatish ijobjiy natijalar bergen.

• Shu bilan birga zararkunandalarning katta yoshdag'i qurtlariga qarshi brakon hebetor parazitini 1:1 va 1:5 nisbatlarda, hali turi aniqlanmagan *Bracon sp.* parazitini esa 1:5 va 1:10 nisbatlarda qo'llash ham samaradorligi yuqori bo'lgan.

• Tut parvonasiga qarshi samarali kurashish maqsadida zararkunandaga qarshi yangi mikrobiologik himoya vositalaridan bo'lgan Naturalis-L preparatini gektariga 0,5 l sarflab, tut parvonasi qurtlarini 80,3 va undan ortiq foizini qirib yuborish mumkin ekan.

Umuman tut parvonasiga qarshi yuqorida ta'kidlangan kurash uslublaridan: ya'ni agrotexnik, biologik, kimyoviy va albatta xo'jalik tashkiliy tadbirlardan o'rinli foydalanish, bular asosida zararkunandaga qarshi zamonaviy kurash tizimini ishlab chiqish va amaliyotda tadbiq etish shu kunning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi portalı

3. Ahmedov M.H., Shermatov M.R. Farg'ona vodiysida tut parvona kapalagining (Lepidoptera, Pyralidae) tarqalishi va biologiyasiga oid ayrim ma'lumotlar // Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va Farg'ona vodiysining ekologik muammolari. Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. -Farg'ona, 2001. -B. 78-79.

4. Ahmedov M.H., Shermatov M. Farg'ona vodiysida tut parvonasining (Lepidoptera, Pyralidae) biologiyasiga oid // O'zbekiston biologiya jurnali. -Toshkent, 2002. -№4. -B. 53-57.

5. Ahmedov M.H., Shermatov M. Farg'ona viloyatida tut zararkunandalarining biologiyasi va ekologik xususiyatlari // Agrar fani va ta'limi: dolzarb muammolari, istiqbolli rivojlanishi. Ilmiy-amaliy xalqaro konferentsiya materiallari. Toshkent, 2004. -B. 427-429.